

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

MUVAQQAT ONOMASTIK BIRLIKLARNING BADIY MATNDAGI VAZIFALARI

Dilrabo Andaniyozova

*O‘zR Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktrori (PhD),
andaniyozova1406@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada muayyan ijodkor uslubiga xos bo‘lgan muvaqqat onomastik birliklarning badiiy matndagi vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, individuallik, real nomlar, muvaqqat onomastik birliklar, muvaqqat ismlar, muvaqqat familiya, joy nomlari, lingvopoetik yondashuv.

Tilshunoslikda ijodkorlarning so‘z tanlash mahorati hamda uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi shunday birliklar borki, ular tilning lug‘at qatlamidan o‘rin olmagan mutlaqo yangi birliklar bo‘lib, muayyan ijodkorgagina xos bo‘lishi, ungacha boshqalar tomonidan qo‘llanilmagani bilan diqqatni tortadi. Okkazonalizmlar deb ataluvchi mazkur birliklar –bir marta qo‘llanishi, ko‘pincha emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lishi bilan keyinchalik turg‘un til birligiga aylanib ketadigan neologizmlardan farqlanadi.

O‘zbek tilshunosligida okkazonal birliklar va ular bilan bog‘liq lisoniy hodisalar muayyan darajada o‘rganilgan. Xususan, S.Mo‘minov okkazonal nutqiy nominatsiya bo‘yicha tadqiqot olib borgan bo‘lsa,¹ A.Mamatov okkazonal so‘zlar va ularning adabiy me‘yorlarga munosabati masalasini o‘rgangan². S.Toshaliyevaning “O‘zbek tilida okkazonal so‘z yasalihi” mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida o‘zbek tilining so‘z yasalihi tizimida okkazonal so‘zlarning yasalihi o‘id teran kuzatishlar olib borilgan³. Tilshunos O.To‘xtasinova “O‘zbek tilida leksik okkazonalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida okkazonalizmlarning yasalihi, leksikografik talqini, okkazonalizmlarning badiiy-estetik vazifasi kabi masalalarga to‘xtalib o‘tgan⁴. Tilshunos B.Umurqulov poetik nutq leksikasi haqidagi tadqiqotida okkazonalizmlarning badiiy matndagi o‘rni va vazifalarini yoritadi.⁵ X.Abdurahmonov va N.Mahmudovlar okkazonalizmlarni individual-stilistik neologizm atamasi ostida tadqiq etadilar va ularning asosiy vazifasi nominatsiya

¹ Mўминов С. Окказионал нутқий номинацияда мотивациянинг роли: филол. Фан. номз.дисс. – Тошкент, 1990.

² Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари д-ри ... дис. – Тошкент, 1991. – Б. 202-229.

³ Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясаиши: филол. фан. номз. ... дисс. –Тошкент, 1998.

⁴ Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари:Филол. фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2007.

⁵ Умурқулов. Б. Поэтик нутқ лексикаси – Тошкент: Фан, 1990.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

emas, balki estetik funksiya ekanligini ta’kidlaydilar.⁶ M.Abdupattoev okkazonalizmlarni muallif idiositilining yuqori darajada shakllanganligi va poetik mahoratidan dalolat beruvchi muhim lisoniy birliklar sifatida o‘rgangan⁷.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, badiiy matnda nafaqat leksik, grammatik okkazonalizmlar, balki onomastik birliklar bilan bog‘liq okkazonalliklar ham kuzatiladi.

Onomastik birliklardagi okkazonallik masalasiga rus va yevropa tilshunosligida bir qadar e’tibor qaratilgan. Ammo bu boradagi ishlar ham tor doirada amalga oshirilgan bo‘lib, unda, asosan, ijodkorlar tomonidan maxsus yaratilgan antroponimlar hamda toponimlarning estetik vazifalariga diqqat qaratilganini kuzatdik⁸.

Ma’lumki, badiiy matnda muayyan badiiy niyat bilan qo‘llangan onomastik birliklar poetonim hisoblanadi. Biroq ularning ichida badiiy matn uchun yaratilgan, ijod qilingan maxsus nomlar borki, bunday nomlar jiddiy ekspressiv yuk oladi. Ular real onomastik birliklardan shakli, tarkibi va mazmun-mohiyati jihatidan farqlanadi. Shu ma’noda ijodkorlar tomonidan maxsus badiiy matnga olib kirilgan onomastik birliklarning poetik imkoniyatlarini, pragmatik xususiyatlarini tekshirish maqsadida bunday nomlarni biz **muvaqqat onomastik birliklar** termini ostida o‘rgandik.

Avvalo, muvaqqat onomastik birliklarning chegarasini belgilash zarur. *Muvaqqat* so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha berilgan: “Muayyan vaqtga belgilangan; vaqtincha, qisqa vaqtli. Vaqtinchalik, doimiy bo‘lmagan”. Ko‘rinadiki, badiiy matnda bir martalik, ya’ni vaqtincha qo‘llangan, ijodkor tomonidan maxsus o‘ylab topilgan onomastik birliklarga nisbatan muvaqqat nomlar termini uyg‘un keladi.

Muvaqqat onomastik birliklar ismlar fondida uchramaydigan, ijodkor tomonidan maxsus o‘ylab topilgan hamda muayyan badiiy niyatni yoritishga xizmat qilgan onomastik birliklardir. Badiiy matnda qahramonlarning ismi, familiyasi, otaismi, shuningdek, joy nomlarini atash uchun doim ham real nomlardan foydalanilmaydi. Maxsus yaratilgan nomlar real nomlarga qaraganda ekspressivlikka, hissiy yukka to‘yingan bo‘ladi, shuningdek, ular odatda kontekstda, ya’ni badiiy matn

⁶ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.31.

⁷ Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: фил. фан. д-ри дисс. Фарғона, 2021. – Б.143.

⁸ Яковенко Н.С. О некоторых особенностях окказиональных антропонимов в английских романах В.В. Набокова // МНКО. 2011. №2. – С. 48–50; Астафьев А.Ю. Художественные функции окказионализмов. Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2007. 177 с. 3. Пулина Е.А. Окказиональные имена собственные в романе Дж. Джойса «Улисс» и их межъязыковая передача // Пермский государственный фармацевтический вестник. 2007. №3. – С. 195–198.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

doirasida o‘z poetik maydonini hosil qiladi hamda tilda mustahkam o‘rnashib olishni talab qilmaydi. Ta’kidlash kerakki, bunday onomastik birliklar umumxalq onomastik birliklaridan muayyan xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Muvaqqat onomastik birliklar xarakteriga ko‘ra o‘zi nomlagan ob’ekt haqida ma’lumot berishidan tashqari, sub’ektiv munosabat bildirishi, baholashi, konnotativ ma’no kasb etishi mumkin. Muvaqqat nomning shakllanishi mavjud real nomlarning muayyan qoliplariga muvofiq amalga oshiriladi. Masalan, *-qul* antropoindikatorlari orqali yasalgan muvaqqat nomlar: *Robotqul* (O.Matjon), *Balliqul*, *Bevoshqul* (T.Malik), *Shoshmaqul* (S.Ayniy); *-iston*, *-zor*, *-obod* topoindikatorlari orqali yasalgan muvaqqat nomlar: *G‘uliston* (A.A’zam), *Quyoshiston* (M.Yusuf), *Salomobod* (M.Shayxzoda), *Chog‘irobod* (Alp Jamol), *Donishqishloq* (E.Vohidov), *Qahratoniya* (A.Obidjon), *Tantiboyvachcha* (Oybek), *Vosvosxo‘ja*, *Meshpolvon*, *Chambaraxxon* (A.Obidjon), *Sharobbek*, *Shudringboyyvachcha*, *Ma’nijon*, *Ma’quljon*, *Qoyilxo‘ja*, *Diqqatjon*, *Dadilxo‘ja* (Alp Jamol), *Ishlarbek Sapchaboshev* (Mirmuhsin).

Muvaqqat onomastik birliklarning o‘ziga xos ba’zi xususiyatlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- onomastik fondda uchramaslik;
- kontekstuallik;
- individuallik;
- maxsus o‘ylab topilganlik;
- situativlik (vaziyatga bog‘liqlik);
- ko‘nikilmaganlik;
- kutilmaganlik;
- ohorlilik.

Badiiy matnlarda uchraydigan muvaqqat onomastik birliklarni tadqiq etish ijodkorning individual uslubini o‘rganishga ham yordam beradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida A.Obidjon asarlarida muayyan maqsad bilan qo‘llangan onomastik birliklar ko‘p uchraydi. Quyidagi parchadagi toponim ohorlilik bilan hamda sovuq o‘lka bo‘lgan Sibirga ishora qilingani hamda mazkur real joy nomining qayta nomlangani jihatdan diqqatni tortadi. Yozuvchining individual uslubiga xos bo‘lgan mazkur nom nafaqat joy nomiga xos bo‘lgan xususiyatni bildirgan, balki ijodkorning sub’ektiv munosabatini ham ifodalalab kelgan. Ya’ni muvaqqat nom orqali ishora qilinayotgan real nomning sovuq o‘lka ekanligiga urg‘u beriladi va o‘zbek tilida eng kuchli sovuqni ifodalovchi *qahraton* so‘zi orqali yangi nom hosil qilinadi. Ayni jihatlari bilan poetonim muvaffaqiyatli qo‘llangan deyish mumkin: *Tirik qolgan jangchilar bilan sog‘lom qiz-juvonlarni zanjirband etishib,*

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

birini qul, birini cho‘ri sifatida Qahratoniya degan uzoq o‘lkaga haydab ketishdi. Ularning orasida Meshpolvonning dadasi bilan ko‘zlari kiyiknikidek chiroyli onasi ham bor edi. A.Obidjon, Meshpolvonning sarguzashtlari.

O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidov asarlarining onomastik ko‘lami ham o‘ziga xos bo‘lib, shoir milliy til qoliplari asosida bir qancha nomlarni ijod qiladi. Xususan, uning “Donishqishloq latifalari” hajviy asaridagi qishloq *Donishqishloq* nomi bilan yuritiladi. Ma’lumki, o‘zbek toponimik fondida bunday joy nomi uchramaydi. Shoirning mahorati shundaki, o‘z qahramonlari yashaydigan hududni *Donishqishloq* deb ataydi va aholisini sodda, bayov va aqlli deb hisoblaydi. Muallif joy nomini boshqa xususiyatlarga ko‘ra atashi ham mumkin edi, biroq mug‘ombirlikni bilmaydigan aholi yashaydigan joyni *Donishqishloq* deb ataydi:

Donishqishloq degan joy

Bordir bizning tomonda.

O‘sha qishloq ahlidek

Dono xalq yo‘q jahonda.

Aytish mumkin, *Donishqishloq* E.Vohidov ijodidagi eng original topopoetonimlardan hisoblanadi. Shoirning tafakkuridagi geografik joy nomi ham milliy til fondida mavjud bo‘lmagan, ammo toponimik qolip asosida yasalgan betakror poetik mazmunga ega nom hisoblanadi. Dastlab bu nomni o‘qigan odam u yerda faqat donishmand odamlar yashasa kerak deb, o‘ylaydi. Chunki nomning o‘zida bu ma’no aniq sezilib turadi. Asarni o‘qib bo‘lgandan keyin esa bu nom yuzasidan kitobxon yuzida tabassum paydo bo‘ladi. Chunki *Donishqishloq* aholisi behad sodda va samimiy insonlar bo‘lib, ularning fe‘l-atvori va guringiga guvoh bo‘lgan har qanday inson beg‘arazgina kulish bilan kifoyalanadi. *Donishqishloq* – shoir idealidagi toza va samimiy insonlar qishlog‘i. Ularning donoligi ayyor va mug‘ombir insonlar donoligidan ko‘ra yuksakroq. Shu bois kitobxon bu qishloqni yaxshi ko‘rib qoladi. Bu nom shoirning o‘ziga ham shu darajada yoqadiki, u boshqa bir she’rida shu toponimni xotirlatmoqchi bo‘ladi:

Xayrlashmay ketar ingliz,

Mezbonini notinch etmaydi.

Donishqishloq ahli, bilsangiz,

Xayrlashadiyu ketmaydi

E.Vohidov, Inglizcha ketish

She’rda muvaqqat toponim qiyoslash vazifasini bajarish bilan birga, Matmusaning qishlog‘iga ishora qilgan hamda intertekstuallikni yuzaga keltirgan.

Ijodkorlar tasavvuridagi xayoliy maskanlar va ularning muvaqqat nomlari

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

filologik tadqiqotlar uchun ijodkor laboratoriyasiga kirishda kalit vazifasini bajaradi. Har bir yozuvchining xayolini band etgan maskani bo‘ladi va o‘sha maskan aholisi haqida u yoki bu shaklda asarlarida yozadi. Ba’zi yozuvchilar o‘sha xayoliy maskanni shu darajada aniq tasvirlaydiki, pirovardida o‘zi ham uning xayoliyligiga ishonmay qo‘yadi. Haqiqat va xayol o‘rtasidagi bunday maskan nafaqat ijodkorni, balki kitobxonni ham, tadqiqotchini ham qiziqtirishi tabiiy. A.A’zamning G‘ulistoni, M.Yusufning Quyoshistoni, M.Shayxzodaning Salomobodi, Alp Jamolning Chog‘irobodi, Anvar Obidjonning Qahratoniyasi qaerdadir parallel olamda bordek tasavvur uyg‘otadi. Shuning uchun ham kitobxonlar to‘qima toponim bilan bog‘liq tasvirlarni doim qiziqish bilan o‘qiydi. Bu borada *Donishqishloq* hammasidan ko‘ra real hayotga yaqin va qiziqarli maskan hisoblanadi. Qahramonlar ismlarining muayyan maqsad bilan tanlangani jihatidan U.Azimning “Tong otgan taraflarda” nomli dramatik asari ham diqqatga molik bo‘lib, u xalqning tarixiy xotirasi bilan bog‘liq o‘ziga xos monumental asar hisoblanadi. Asarda xalq ardoqlagan rivoyatlar, qahramonlar, urf-odatlar katta mahorat bilan asar syujetiga singdirilgan. Ayniqsa, asar qahramonlari ismi ohorliligi ayni paytda ko‘nikilmaganligi bilan e’tiborni jalb qiladi. Ismlarning o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingani hamda umumturkiy tilning tarovati kitobxonni befarq qoldirmaydi. Masalan, qahramonning ismi *Tongyorug‘* bo‘lib, xalqning nomi *Tongli*. Bu ikkisini birlashtirib turgan motiv *tong* so‘zi hisoblanadi. *Tongyorug‘*ning qahramon sifatidagi muvaffaqiyati *Tongli* xalqining yorug‘ kunlarga erishish istagini ifoda etadi. *Tongyorug‘* merganlikda qanchalik nom qozonsa, *Tongli* xalqi ham atrof-javonibga ma’lum va mashhur bo‘laveradi. *Tongyorug‘* antroponimi muallif ijodiy tafakkurining mahsuli hisoblanadi. *Tong* ham aslida yorug‘likni ifodalaydi. *Yorug‘* so‘zi bilan birikkanda esa, barcha tonglarning yorug‘ bo‘lishi istagini namoyon qiladi. *Yorug‘lik* oydinlik, *tong* so‘zi bilan aloqalantirilgan holda ham etnonim, ham antroponim vazifasini o‘taydi. Shuningdek, mahoratli adib qahramonlarining ismi, asosan, uzoq o‘tmish bilan bog‘liqligi, milliy qadriyat va tafakkur tarzi bilan uyg‘unligi jihatidan ham qimmatli. Muallif hech bir qahramonining ismini shunchaki tanlanmaydi. Har biri o‘ziga xos ma’no va mazmun bilan to‘yingan bo‘ladi. Masalan, *Manguqut*, *Kunyorug‘*, *Yolg‘iz Mergan*, *Manguhayot* kabi anroponimlarga e’tibor bersak, ismi jismiga va faoliyat tarziga mosligi jihatidan mukammal topilgan. Nomlar, birinchi navbatda, muallif to‘qigan ismlar bo‘lib, ular o‘zbek antroponimik fondida uchramaydi. Biroq har biri antroponimik tamoyillar asosida shakllantirilgan. *Manguqut* antroponimi *mangu* va *qut-baraka* so‘zlarining sintezidan hosil bo‘lgan. *Mangu* so‘zi uzoq umrni, abadiyat ma’nosini ifodalaydi. *Qut* so‘zi bilan birgalikda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

barakaning umr bo‘yi davom etishi istagini ifodalaydi. *Manguqut* ismli qahramon 65-70 yoshli o‘ziga to‘q donishmand chol qiyofasida tasvirlangan. Bunda *qut* so‘zining tarixiylik ma’no qirrasini ham sezilib turadi. *Mangu* so‘zi bilan hosil qilingan yana bir personaj ismi borki, u 18 yosh atrofidagi yosh navqiron qiz qiyofasida tasvirlanadi. Uning ismining ikkinchi komponenti *hayot* so‘zi bo‘lib, *mangu+hayot* so‘zlarini qo‘shish orqali ism egasiga uzoq umr tilash motivi singdirilgan. Agar mazkur ismlarni almashtirib qo‘llasak, ya’ni cholning ismini *Manguhayot*, qizning ismini *Manguqut* deb atasak, ism va yosh o‘rtasidagi mantiqiy muvofiqlikka putur yetgan bo‘lar edi. Shu ma’noda, muallifning qahramon ismlarini yaratishdagi ijodiy yondashuvi muvaffaqiyatli chiqqan deyish mumkin.

Quyidagi matn parchasida qo‘llangan *Va’daev* hamda *Sarsonov* familiyalari ham o‘zining g‘ayriodatiyligi bilan diqqatni tortadi. Matnni o‘qiganda aynan shu familiyalarni qo‘llashdagi badiiy maqsad namoyon bo‘ladi.

V a ‘ d a y e v. Keling, uka.

S a r s o n o v. Men Sarsonovman... (Qulog‘iga.) Chorshanba kuni keling, degan edingiz.

V a ‘ d a y e v. Sarsonov... Ha... bo‘ldi, menga qarang, shu kelasi shanbaga keling.

S a r s o n o v. Yana-ya, nega?

V a ‘ d a y e v. (qulog‘iga) Gap bor, keyin xursand bo‘lasiz.

Alp Jamolning “Gap bor, keyin xursand bo‘lasiz” asarida qo‘llangan onomastik birliklarda ham jiddiy poetik yuk va pragmatik maqsad bor. *Va’daev* familiyasi boshliq oldiga turli muammolar bilan kirgan odamlarga katta va’dalar berib, ularni umidvor qiladi. Biroq amalda bergan va’dalarini bajarmaydi. Asardagi *Sarsonov* ana shunday va’dalardan umidvor bo‘lib, qiynalgan qahramon. Uning familiyasi tashigan mazmun *Va’daev* familiyasini yanada to‘ldirgan. Matnda tanlangan mazkur to‘qima familiyalar matnning asosiy ustuni bo‘la olgan. Ya’ni mazkur familiyalar shu tarzda tanlanmaganida matn mazmuni bu qadar aniq bo‘lmas edi. Umuman, badiiy matnga muayyan maqsad bilan olib kirilgan onomastik birliklarning apellyativ ma’nosi juda muhim hisoblanadi. *Va’daev* antroponimidagi mazmuni salbiy ma’noga aylantirgan xusus bu – *Sarsonov* familiyasi qahramon nomi orqali yuzaga kelgan. Agar familiya alohida qo‘llanganda kinoya sezilmasdi. Mazkur parchada kitobxon uchun va’daning kinoyaviy ma’nosi birinchi planga chiqqan va yozuvchining badiiy niyati oshkor bo‘lgan.

Ba’zan badiiy matnda uchraydigan onomastik birliklar komponentining bir qismi mavjud onomastik fondan tanlanadi. Tanlangan antroponim va tildagi boshqa so‘zlar ishtirokida yangi to‘qima ism hosil qilinadi. Natijada ism+noodatiy so‘z yoki

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qo‘shimcha asosida yangi muvaqqat nom hosil qilinadi. Va bunday ismlar kuchli ekspressiya hosil qiladi. Masalan, quyidagi matnda qatnashgan *Boqizavr* antroponimi tilimizda (onomastik fond) mavjud emas. Asarda *Boqi* ismli qahramonning tashqi ko‘rinishi bahaybat, ya’ni bo‘yi uzun va beso‘naqay bo‘lgani uchun uni dinozavrga o‘xshatishadi hamda ismida ham shunga ishora qilib, *dinozavr* so‘zining *zavr* qismi orqali yarim muvaqqat ism hosil qilinadi. Natijada nomning ham lingvopoetik, ham pragmatik qimmatini ortadi: *Biz bilan bir barzangi yigit ishlar edi, yurish-turishi vahima, hamkasbimiz uylanganda, to‘yda shu gavdasi bilan o‘yinga tushib, hammani qo‘rqitdi, shundan keyin uning Boqi oti Boqizavr bo‘lib ketdi. Endi, qarang, shu gavda, boshi shiftga tegadigan bo‘y bilan qorong‘idan juda qo‘rqar, kechasi tashqari chiqmoqchi bo‘lsa, albatta, yonidagi hamxonasini uyg‘otib, birga boraylik, deb yalinar ekan. Agar o‘zi kechasi odamning oldidan tuyqusdan chiqib qolsa, qo‘rqmagan odamning ham yuragiga vahima solar edi.* A.A’zam, G‘ulistoniga safar.

Ko‘rinadiki, *Boqizavr* antroponimi ko‘rinishi juda bahaybat, ya’ni beso‘naqay qahramonga nisbatan qo‘llanib, keltirilgan matnda ayni shu jihatlarga ishora qilingan. Xususan, *barzangi, qo‘rqitdi, yurish-turishi vahima* kabi nomga ishora qiluvchi birliklar ismga yuklangan badiiy maqsadni yoritishga xizmat qilgan. Shuningdek, mazkur ism va qahramon xarakterida zidlik ham kuzatiladi. Ushbu hodisa tilshunoslikda **personaj-nom antinomiya** deyiladi. Ismga zidlik chizgilari quyidagi parchada yaqqol ko‘ringan: *Endi, qarang, shu gavda, boshi shiftga tegadigan bo‘y bilan qorong‘idan juda qo‘rqar, kechasi tashqari chiqmoqchi bo‘lsa, albatta, yonidagi hamxonasini uyg‘otib, birga boraylik, deb yalinar ekan. Agar o‘zi kechasi odamning oldidan tuyqusdan chiqib qolsa, qo‘rqmagan odamning ham yuragiga vahima solar edi.* A.A’zam, G‘ulistoniga safar.

Hajviy asarlarda nom tanlashning o‘ziga xos mezonlari bor. Bunday nomlar odatda o‘zbek tilidagi so‘zlar asosida hosil qilinadi hamda ular orqali qahramonning muayyan kamchiligi yoki xarakteriga ishora qiladi. Masalan, O.Hayitovning “Xudbiddinning hurmati qani” hajviyasi qahramoni nomi Xudbiddin deb atalgan. Tilimizdagi mavjud onomastik qolip asosida yasalgan *Xudbiddin* nomi o‘quvchi xotirasida assotsiativ tarzda *xudbin* so‘zini paydo qiladi. Nom matnda salbiy sub’ektiv baho ifodalash uchun qo‘llanilgan. *Otim Xudbiddin bo‘lgani bilan o‘zim xudbin emasman. Hurmatimni yo‘qotib qo‘yganman, xolos. Bilmayman, qachon, qaerda yo‘qota qoldimakan u qurmag‘urni.* O.Hayitov, Xudbiddinning hurmati qani? Ko‘rinadiki, muvaqqat onomastik birliklar ijodkorlar tomonidan milliy onomastika qoliplari asosida, ba’zan milliy onomastika an’analariga mos kelmaydigan tarzda hosil qilinib, ular bir marta qo‘llanishi, noodatiyligi, ko‘nikilmaganligi bilan tilning

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

onomastik fondidan jiddiy farq qiladi. Bunday nomlar badiiy matnda komik effekt hosil qilish, salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalashda (ko‘proq salbiy) foydalaniladi. Umuman, muvaqqat onomastik birliklar badiiy matn ehtiyoji tufayli hosil qilinib, qahramonlar, joy nomlariga xos turli xususiyatlarni original ifodalash imkonini beradi.